

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR TASVIRI

Jumaqulova Shaxnoza Qudrat qizi

Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant

E-mail: shaxnoz2023@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari o‘rganilgan. Tahlil davomida frazeologik birliklarning intensional tahlili misolida pragmatik xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, pragmatika, intensional tahlil, boshlang‘ich intensioniya, natijaviy intensioniya.

DESCRIPTION OF PRAGMATIC CHARACTERISTICS IN PHRASEOLOGICAL UNITS

Abstract: In this thesis, the pragmatic features of phraseological units were studied. During the analysis, the pragmatic features of phraseological units were described as an example of intentional analysis.

Key words: phraseology, pragmatics, intentional analysis, initial intention, consequential intention.

Muloqot insonlarning o‘zaro aloqa vositasi jarayonida sodir bo‘lib, unda turli xil til birliklari qo‘llaniladi. Ushbu birliklar orasida frazeologik birliklar ham mavjud bo‘lib, u so‘zlarning ma’no bo‘yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur frazeologizmlarning mazmuni majoziy ma’noda qo‘llanilgani sababli nafaqat muloqot davomida balki matnlarda ham turli xil qiyinchiliklar hamda tushunmovchiliklar sodir bo‘ladi. Tilshunoslikda esa bu kabi muammolarni o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Frazeologizmlar yillar davomida xalq orasida qo‘llanilib kelinmoqda. Sh.Rahmatullayev adabiyotlarda ushbu til birligini frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan atalishini leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishini ma’qullaydi, shuningdek, frazema ikki va undan ortiq leksema o‘zaro semantik-sintaktik bog‘lanib, umumlashma ko‘chma ma’no kashf etishi bilan yuzaga kelishini [3, 420] ta’kidlagan.

Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, uning tadqiqot doirasiga muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o‘rganilishi Sh.Safarovning “Pragmalingvistika” monografiyasida izohlanadi [4, 76].

Nutqiy harakat maqsadini aniqlashga yo‘naltirilgan intensional tahlil bo‘lib, ushbu tahlilni Sh.Safarov kommunikativ jarayonda voqelanadigan nutqiy faoliyatning so‘zlovchi maqsadi, istagi bilan bog‘liq tomonlari o‘rganilishini ta’riflab, Kiyev universitetining professori O.G.Pochepsovning nutqiy harakat va bu harakat vositasida voqelanadigan maqsad so‘zlovchi ko‘zlagan asosiy maqsadga erishishning faqatgina bir bosqichi hisoblab, umumiy intensioniyani ikki qismga ya’ni “boshlang‘ich intensioniya (maqsad)” va “natijaviy intensioniya”ga ajratishni taklif qilganligini qayd etadi [4, 80].

Mazkur pragmatik xususiyatlar O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi hamda “Nur borki, soya bor” romanidan olingan frazeologik birliklar misolida intensional tahlil aks ettiriladi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan “Opamning ko‘zlari quvonchdan porlab ketdi.” [1, 117] parchasida “ko‘zlari quvonchdan porlab ketdi” frazeologik birligi ifodalangan. Ushbu nutqiy harakat intensional tahlil qilinishiga ko‘ra boshlang‘ich intensioniyasi darak, xabar berish ya’ni “opasining ko‘zlari quvonchdan porlab ketganini aytish” bo‘lsa, natijaviy intensioniya “opasining juda xursand bo‘lganini xabar qilish” hisoblanadi.

“– Omadingiz keldi! – injener iyagini cho‘zib qiya eshik tomonga imo qildi.” [2, 181] gapi “Nur borki, soya bor” romanidan keltirilgan parcha bo‘lib, “ishi o‘ngidan kelmoq, baxti kelmoq, yurishmoq” ma’nolarni ifodalovchi “omadi kelmoq” iborasi

qo‘llanilgan. Mazkur nutqiy tuzilma intensional tahlil qilinishiga ko‘ra, boshlang‘ich intensiya darak, xabar berish ya’ni “omadi kelganini aytib injener iyagini cho‘zib qiya eshik tomonga imo qilishi”, natijaviy intensiya “ishi o‘ngidan kelgani baxtligini aytgan injener iyagini cho‘zib qiya eshik tomonga imo qilganidan xabardor qilish” hisoblanadi.

Ushbu tahlillar natijasidan shuni xulosa qilish mumkinki, frazeologik birliklar mazmuni gaplar tarkibida qo‘llanilganda ularda ishtirok etgan so‘zlar va ularning majoziy ma’nosini tushunish tinglovchi yoki matn o‘quvchisini boshlang‘ich hamda natijaviy niyatini anglash kerakligini ko‘rsatadi. Mazkur ilmiy tadqiqot kelgusi ilmiy ishlarda tilshunoslikning leksikologiya hamda tarjimashunoslik fanlarida muhim ahamiyat kasb etishi istiqbolli sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – B.117.
2. Hoshimov O‘. Nur borki, soya bor. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977. – B.181
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – B.420.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – B.76-80.